

## SELITEB LANDSHAFTLARDA TUPROQLARNING IFLOSLANISHI VA CHIQUINDILAR MUAMMOSI

Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi  
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Seliteb landshaftlar - aholi istiqomat qiluvchi antropogen hududlar bo'lib, ular tarkibiga binolar va qurilish obyektlari, ko'chalar, avtotrassalar, ishlab chiqarish korxonalari, bog' hamda istirohat maskanlaridan iborat shahar va qishloqlar kiradi. Urbanizatsiya darajasining ortishi esa shaharlarning seliteb landshaftlarida texnogen ifloslanish va boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday muammolardan biri chiqindilar muammosi bo'lib, jahonning ko'plab mamlakatlarida dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Chiqindilar deganda, xo'jalik, qurilish va sanoat, parklar, avtomagistrallar, bog'dorchilik kabilarning yashash maydonlari, suv havzalari hududiga yaqin joylarga qoldiqlarini joylashtirishi tushuniladi.

Kimyogarlarning fikriga ko'ra, chiqindilar noto'g'ri joylashtirilgan kimyoviy moddalar bo'lib ularning barcha turlari ham kimyoviy inert holatda emas, ular atrof-muhitni mexanik ifloslanishiga olib keladi.

Xo'jalik chiqindilari esa deyarli barcha yirik shaharlarning asosiy ekologik muammosi sanaladi. Masalan, Rossiyaning Sank-Peterburg shahrida yashovchi kishi boshiga yiliga 1m<sup>3</sup> yoki 180 kg xo'jalik chiqindisi to'g'ri keladi. [1] Statistika ma'lumotlariga ko'ra, yirik shaharlarda chiqindilar hajmi har yili 2% ga ortib boradi. Farg'ona shahri misolida ko'radigan bo'lsak, so'nggi yillarda tashkilot va korxonalardan chiqariladigan toksik va notoksik chiqindilarning umumiy miqdori 2021 yilda 98,452 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, qayta ishlanishi kerak bo'lgan toksik va notoksik chiqindilar miqdori 83,771 tonnani tashkil qilgan [2]

1-jadval. 2021 yilda Farg'ona shahri bo'yicha chiqindilar miqdori, t

Turi	Jami	Nomi	
Toksik chiqindilar	0,93	Qayta ishlan maydigan toksik chiqindilar	0,159
		Qayta ishlanishi kerak bo'lgan toksik chiqindilar	0,771
Notoksik chiqindilar	97,522	Qayta ishlanmaydigan notoksik chiqindilar	14,522
		Qayta ishlanishi kerak bo'lgan notoksik chiqindilar	83,000



Ba'zan chiqindilar to'planib, magistral yoki maydon xarakteriga ega bo'ladi. Bunday uyumlar chiqindixonalar deyiladi. Hududlarning chiqindilar bilan ifloslanishi hamda chiqindixonalarda to'planishi quyidagi zararli oqibatlarga yuzaga keltiradi:

1. *Iqtisodiy yo'qotishlar*, ishlab chiqarish sohasida qimmatli ikkilamchi xom-ashyo va materiallardan foydalanish qaytmas holatga kelishi bilan bog'liq.
2. *Ekologik yo'qotishlar*, chiqindixonalar sababli atrof muhitda kechadigan turli xil o'zgarishlar bilan bog'liq: tuproqlarning unumdor qatlamini yo'qotilishi yoki turli chiqindilar bilan qoplanishi hamda uning xususiyatlarining buzilishi; tuproqlarning, tuproq ustki hamda ostki qatlam suvlarining, shuningdek atmosfera havosining ifloslanishi; chiqindixonalar tarqalgan hududlarda jonli tabiat tuzilmalarining barcha darajalaridagi, ayniqsa ko'proq yo'qotishga uchraydigan quyi shakllardagi (tuproqdagi flora va fauna, hasharotlar va boshqalar) ommaviy biotik o'zgarishlar bilan bog'liq.
3. *Estetik yo'qotishlar*, insonning estetik nuqtai nazaridan dam olish hududlari, tabiiy hududlar, yashash joylari va boshqa maydonlarining tashqi ko'rinishini shartli ravishda qoniqarsiz holatga kelishi bilan bog'liq.
4. *Ijtimoiy yo'qotishlar*, havfli chiqindixonalar yaqinidagi hududlarda aholining kasallanishi bilan bog'liq.

Axoli punktlarida tuproqlarning ifloslanish xavfi quyidagilar orqali aniqlanadi:

1. Tuproqlarni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishining epidemiologik ahamiyati.
2. Tuproq ifloslanishining roli atmosfera havosining ostki qatlami, ikkilamchi ifloslanish manbasi va uning inson bilan bilvosita aloqasi sifatida namoyon bo'ladi.
3. Tuproq ifloslanish darajasi atmosfera havosining ifloslanish indikator sifatida ahamiyat kasb etadi.

Seliteb landshaftlar tuproqlaridagi kimyoviy elementlarni o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu boradagi bir nechta ilmiy-tadqiqot ishlarini misol keltirish mumkin: Volgograd seliteb landshaftlari tuprog'ida og'ir metallarning to'planishi [3], aholi punktlari geokimyoviy landshaftlari klassifikatsiyasi [4], texnogen landshaftlar tuproqlarining genezis va evolyutsiyasi [5] o'rganilgan bo'lib, shahar tuproqlari va qor qoplaminig og'ir metallar bilan ifloslanishini baxolash bo'yicha metodik yo'riqnoma [6] ishlab chiqilgan.

Bundan kelib chiqadiki, seliteb landshaftlar, xususan, Farg'ona shahri seliteb landshaftlarini, aholi punktlarini ekologik-geokimyoviy tadqiq qilish, ularni guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.



Landshaftlarni ajratishda aholi punktlarida kechadigan geokimyoviy (birinchi navbatda, texnogen) jarayonlarning xususiyatlariga ko'ra, kimyoviy elementlar (ularning birikmalari) konsentratsiyasi va migratsiyasi, tashqi omillarining asosiy xususiyatlari hisobga olinadi. Bundan tashqari, asosiy e'tiborni ko'rilayotgan landshaftga kelib tushayotgan elementlarning tabiiy va texnogen manbalariga qaratish zarur.

### **Adabiyotlar**

1. Химические элементы в геохимических системах. Кларки почв селитебных ландшафтов : монография / В. А. Алексеенко, А. В. Алексеенко. – Ростов н/Д: Издательство Южного федерального университета, 2013. – 380 с.
2. Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2022 y.
3. Спиридонова Ирина “Оценка накопления тяжелых металлов в почвах селитеб ландшафтов Волгограда” дисс.2009
4. Алексеенко В.А. Классификация геохимических ландшафтов населенных пунктов // Экология: опыт, проблемы, поиск. – Новороссийск, 1991. – С. 3–11.
5. Андроханов, В. А. Почвы техногенных ландшафтов: Генезис и эволюция. / Е. Д. Куляпина, В. М. Курачев // Новосибирск. Изд. СО РАН 2004. 151 с
6. Алексеенко В.А., Лаверов Н.П., Алексеенко А.В. К вопросу о содержании химических элементов в почвах селитебных ландшафтов. Школа экологической геологии и рационального природопользования. – СПб., 2011. – С. 39–45.

